

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7881529>

Abdullayev Jasurbek Xolmurod o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent shahar
Qo'riqlash boshqarmasi Yashnobod tuman qo'riqlash bo'limi
kadrlar guruhi katta inspektori leytenant
Sayidjonov Sanjarbek Nodirjonovich
Jamoat xavfsizligi universiteti kursanti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Konstitutsiyaviy komissiyaga 220 mingdan ziyod takliflar kelib tushgani, komissiya a'zolari tomonidan ushbu taklif va munosabatlar, fikr va mulohazalar o'rganilib, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *saylov tizimi, fuqarolarning huquq ,erkinliklari, jamiyat ,shaxsning o'zaro munosabatlari , sud tizimi ,davlat va jamiyat.*

Abstract: *More than 220,000 proposals have been received for the newly revised Constitution of the Republic of Uzbekistan, the members of the commission have studied these proposals and attitudes, opinions and comments, and are considering the establishment and introduction of additions to the current Constitution of the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *electoral system, rights of legal entities, society, interpersonal relations, court, state and society.*

Абстрактный: *В новую редакцию Конституции Республики Узбекистан поступило более 220 000 предложений, члены комиссии изучили эти предложения и взгляды, мнения и замечания, рассматривают вопрос об установлении и внесении дополнений в действующую Конституцию Республики Узбекистана.*

Ключевые слова: *избирательная система, права юридических лиц, общество, межличностные отношения, суд, государство и общество.*

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilib, 2023-yil 10-martda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish haqida"gi 3017-IV-son qarorining (ilovasi bilan) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga⁴⁴ muvofiqligini aniqlashni so'ragan.

⁴⁴ [„Шавкат Мирзиёев заявил о необходимости конституционных реформ“](#). Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.

Barchaga ma'lumki, Konstitutsiya davlatimizning asosiy qonunidir, – dedi Anvar To'ychiyev. – U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beribgina qolmay, xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo'ldagi izlanishlari natijasidir.

Bundan bir yil muqaddam, xalq muhokamasiga qo'yilgan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Konstitutsiyaviy komissiyaga 220 mingdan ziyod takliflar kelib tushdi. Muhimi, Komissiya a'zolari tomonidan ushbu taklif va munosabatlar, fikr va mulohazalar o'rganilib, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Eski tahrirdagi Konstitutsiya 128 ta moddadan tarkib topgan bo'lsa, yangi tahrirdagi, o'zgartirilgan va qo'shimcha kiritilgan Konstitutsiya 155 ta moddadan iborat. Mamlakat rivoji, ertangi kuni, muxtasar qilib aytganda aholini haq-huquqlari, millat hayotining davomiyligini ta'minlashga qaratilgan milliy strategiyamiz o'z ifodasini topgan.

Misol uchun, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 48-moddasi "Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralari ko'radi. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi"⁴⁵ degan mazmundagi hayotiy norma bilan mustahkamlab qo'yildi.

Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasida soha xodimlari, senator Anvar To'ychiyev ishtirokida o'tkazilgan yig'ilish bahs munozaralarga boy bo'lib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar mazmun-mohiyati ochib berildi. Joriy yilning 30-aprel kuni mamlakatimizda o'tkaziladigan referendumga tayyorgarlik ko'rish va unda faol ishtirok etish yuzasidan tushunchalar berildi.

Qayd etilganidek, Konstitutsiyaviy qonun loyihasida insonning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi belgilanyapti. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak. Shuningdek, qonunda nazarda tutilgan pensiyalar, nafaqalar va boshqa ijtimoiy

⁴⁵ ↑ [„Сенат одобрил поправки в Конституцию“](#). Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.

yordamning miqdori rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan kam bo'lishi mumkin emasligi aniq ko'rsatilmogda, fuqarolar tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini davlat hisobidan bepul olishga haqli ekani qat'iy o'rnatilmogda.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha normalar kiritildi. Jumladan, davlatning fuqarolarni ishsizlikdan himoya qilish va kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rishga oid vazifalarini nazarda tutuvchi yangi modda kiritildi. Bundan tashqari, mazkur moddaga muvofiq, davlat fuqarolar bandligini ta'minlash uchun ularning kasbiy tayyorgarligi hamda qayta tayyorlanishini tashkil etishi va rag'batlantirishi nazarda tutilmogda.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, fuqarolarimizning uy-joyli bo'lish huquqi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanmogda. Davlat uy-joy qurilishini rag'batlantirishi va uy-joyga bo'lgan huquqning amalga oshirilishiga shart-sharoit yaratishi belgilanmogda. Ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarni uy-joy bilan ta'minlashning qonuniy asoslari yaratilmogda.

Eng muhimi, Konstitutsiyada hech kim sudning qarorisiz va qonunga nomuvofiq holda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi aniq ravshan mustahkamlanmogda. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanadi. Mazkur normaning Konstitutsiyaga kiritilishi bir necha yillardan buyon jamiyatimizda o'tkir muammolardan biriga aylangan "snos"⁴⁶ bilan bog'liq muammoga nisbatan xalqparvar, mulkdorlar manfaatini himoya qiluvchi oqilona yechim bo'ladi.

Qayd etilganidek, Konstitutsiyaviy qonun loyihasida barcha sohalarda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari ta'minlanishiga erishish masalasi ustuvor qo'yilgan. Shu nuqtai nazardan, unda soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligi o'rnatilmogda. Bozor munosabatlari tobora rivojlanayotgan sharoitda ushbu norma barcha fuqarolar, tadbirkorlar huquq va manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, Konstitutsiyaviy qonun loyihasida jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolarning ishtirokini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmogda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-taomillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi belgilanmogda. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, shaharsozlik hujjatlari loyihalari jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi mustahkamlanmogda.

⁴⁶ ↑ „Современный конституционализм: национальный и зарубежный опыт“. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.

Yig'ilishda so'z olganlar loyihada mamlakatimizda olib borilayotgan ochiqlik siyosatini qat'iy davom ettirishga qaratilgan qoidalar mustahkamlanayotganligini alohida e'tirof etishdi. Xususan, davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini kafolatlashi, shuningdek ommaviy axborot vositalari⁴⁷ faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi mustahkamlanmoqda.

Ayni paytda Hukumat zimmasiga ijro hokimiyati organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyatidagi korrupsiya ko'rinishlariga qarshi kurashish, davlat xizmatlarining sifatini va ochiqligini oshirish choralari ko'rish vazifasi belgilanayotganligi qayd etildi.

Konstitutsiyamizga kiritilayotgan ushbu norma mamlakatimizda so'z va axborot erkinligini yanada yuksalishiga, jamiyatda ochiqlik va oshkoralik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Deputatlar qayd etishganidek, avvalgi muhokamalarda Konstitutsiyaviy qonun loyihasidan hokimlarning xalq deputatlari Kengashlariga boshchilik qilishini nazarda tutuvchi qoida chiqarib tashlangan edi. Biroq, jamoatchilik tomonidan berilgan takliflarda bunday o'zgarishning o'zi yetarli emasligi, ya'ni hokimlar xalq deputatlari Kengashlarida rahbar bo'la olmasligi aniq ko'rsatilishi kerakligi bildirilgan edi. Shunga muvofiq, "hokim lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida tegishli xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emas"⁴⁸ degan qat'iy norma o'rnatilmoqda.

Tadbir yakunida ta'kidlanganidek, konstitutsiyaviy qonun loyihasi muhokamasi yana davom ettiriladi. Jumladan, yaqin kunlarda olimlar, huquqshunoslar, faol yoshlar ishtirokida muhokamalar bo'lib o'tishi rejalashtirilgan.

ADABIYOTLAR:

1. „Шавкат Мирзиёев заявил о необходимости конституционных реформ“. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.
2. ↑ „КОНСТИТУЦИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН“. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.
3. ↑ „Президент: Статьи 70–75 Конституции менять не будут“. Qaraldi: 4-iyul 2022-yil.
4. ↑ „Конституция не будет меняться без обсуждения с народом — Танзила Нарбаева“. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.

⁴⁷ ↑ „ИНФОРМАЦИЯ о заседании Кенгаша Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан“. 18-may 2022-yilda asl nusxadan [arxivlandi](#). Qaraldi: 3-iyun 2022-yil

⁴⁸ ↑ „ИНФОРМАЦИЯ о заседании Кенгаша Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан“. 18-may 2022-yilda asl nusxadan [arxivlandi](#). Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.

5. ↑ „ИНФОРМАЦИЯ о заседании Кенгаша Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан“. 18-may 2022-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.
6. ↑ „Сенат одобрил поправки в Конституцию“. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.
7. ↑ „Выборы президента состоятся в октябре“. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.
8. ↑ „Современный конституционализм: национальный и зарубежный опыт“. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.